

This is not registered version of Total-Docx-Converter

Eshitarmanki, kelin (rob) Rossiya qurumi, sivning ustida uzayib osilgan gullarning ko'rinishi ko'b latif emish... Nozik-nozik sayragan qushlarning ...havoyi qo'sh qanotlarining uchushinda ko'rulaturgon nimarsalardan emish!.. Eshitarmanki, kechalari ko'k yuzindagi yoshurungan yoruqlar ko'runar emish... Mavj va girdoblaridek hazin bo'lgan dengiz ichinda oq chotirlik kemalar oqub ketarlar emish!.. Eshitarmanki, gullarning ranglari islarindan, suluqlikda yana ziyoda emish. Daralar... Tog'lar... Maydonlar... Suvlari, beshalar, xususan, tong zamonalari u qadar latif... u qadar totli emishlarki, bu qadar buyuklik va ehtishomga qarshi inson hayratindan sajdag'a ketarmish. Lekin, man ana ul gulduraganini eshitilaturng dengizni... na u ranglik gullarni... na ko'k yuzini... na kunni... na beshalarni... na u yaxshi mevalarni... na qushlarni... na oydinlikni... ko'rolmasligimdan taassuf etmayman. Xayr, Ollohim! Xayr! Shu foniylamning yaxshiligidan hech birini orzu etmayman, magar... Hayhot!... Onajonimni ko'rsaydim!

"Oyna" j., 1914 y., 27-son, 505-bet.